

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi  
tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida 2024-yilda amalga  
oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to‘g‘risida**

**U M U M I Y   H I S O B O T**

**I. Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturining bajarilishi to‘g‘risida umumiy axborot.**

Vazirlikning jami 17 585 ta, jumladan, 59 ta markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, 14 ta hududiy boshqarmalari, 208 ta tuman (shahar) bo‘limlari, 39 ta tizim tashkilotlari va muassasalari, shuningdek, 6 883 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari va 10 134 ta umumta’lim muassasalarida 29 ta Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari hamda vazifa yuklatilgan 208 nafar mas’ul xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qator tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy mexanizmlar joriy etilib, aloqa kanallarining ish faoliyati yo‘lga qo‘yildi, vakant lavozimlar bo‘yicha rasmiy veb-saytga e’lon berilib, ishga qabul qilish jarayonlari ochiq tanlov asosida tashkil etildi.

Shuningdek, ishga qabul qilish uchun hujjat topshirgan nomzodlarni tekshirish va ijobiy yoki salbiy xulosa tuzish amaliyoti joriy etildi, mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi asosiy shartlar kiritildi va xodimlar ichki lokal hujjatlar bilan yozma tartibda imzo qo‘ygan holda tanishtirildi.

Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha xodimlarning deklaratsiya to‘ldirish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi asosiy shartlar kiritildi, kontragentlarni tekshirish ijobiy yoki salbiy xulosa tuzish va reestrini yuritish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi, shuningdek, davlat dasturlarining ijrosi haqida umumiy hisobot yuritish, korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish hamda monitoring va nazorat tadbirlari natijasiga ko‘ra korrupsiyaviy harakat deb hisoblangan holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkazish, reestrini yuritish yo‘lga qo‘yildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan **Davlat dasturida** vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosi monitoring qilinib, ijrosi alohida nazoratga olindi va uning 8, 12-14, 16, 18-19, 25-27 va 30-bandlarida nazarda tutilgan tadbirlar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar haqida, shuningdek, 18-bandga muvofiq tasdiqlangan Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida **“Korrupsiyasiz soha” loyihasini** amalga oshirish bo‘yicha 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan **“Yo‘l xaritasi”** ijrosi yuzasidan ma’lumotlar 2024-yil 27-dekabrda 04-13-4481-son va 2025-yil 6-yanvarda 05-13-52-sonli xat bilan Agentlikka yuborildi.

“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunni amalga oshirish bo‘yicha 2024-yil 5-iyulda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining **idoraviy dasturi** ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida axborot esa 2024-yil 30-iyulda 05-13-2239-son va 2024-yil 3-oktabrda 05-13-3547-sonli xatlar bilan Agentlikka kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish hamda ularning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan **qo‘shimcha chora-tadbirlar rejasi**”dagi tadbirlarning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida esa 2025-yil 8-yanvarda 05-13-126-sonli xat bilan Agentlikka ma’lumot yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini joriy etish bo‘yicha 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan **“Yo‘l xaritasi”**da belgilangan tadbirlarning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida 2024-yil 25-dekabrda 05-13-5642-sonli xat bilan Agentlikka batafsil ma’lumot berildi.

## **II. Siyosat va tartib-taomillar.**

Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari hamda tizim tashkilotlari va muassasalari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid 18 ta ichki lokal hujjatlar va ularga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar 17 585 ta tizim tashkilotlariga elektron shaklda yetkazildi va ushbu hujjatlar matnlaridagi normalarning mohiyati va ahamiyati barcha darajadagi, xususan, 950 ming nafar xodimga tushuntirilib, profilaktika tadbirlari o‘tkazildi, shuningdek, ular mazkur ichki lokal hujjatlar bilan imzo chekkan holda tanishtirilib, kafolat xat (majburiyatnoma)lari rasmiylashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi qabul qilinib, vazirning 2024-yil 31-iyuldagi 236-sonli buyrug‘i bilan ijroga qaratildi. Shuningdek, ushbu ichki lokal hujjatlar hamda ularga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar vazirlikning rasmiy veb-saytidagi “Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘limi”ga (<https://www.uzedu.uz/y3/page/some-page-test> havolada tanishish mumkin) ham joylashtirildi, shuningdek, xodimning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyasi, aloqador shaxslarning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya, manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestri va mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomaning yangi tahrirdagi shakllari tasdiqlandi.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini o‘z ichiga olgan chora-tadbirlar dasturi, reja, “Yo‘l xarita”, Nazorat reja, monitoring va nazorat reja hamda 16 ta ichki hujjatlarning ijrosi 10 ta hududiy (Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Sirdaryo, Namangan, Farg‘ona, Andijon va Toshkent viloyatlari) boshqarmalarning ichki nazorat tuzilmalari faoliyati o‘rganildi.

O‘rganishda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirilmagani, jumladan, faoliyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlar aniqlanmagani, ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash va xaridlar jarayonida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va aniqlash bilan bog‘liq choralar ko‘rilmagani, korrupsiya haqida xabar berish bo‘yicha aloqa kanallari yo‘lga qo‘yilmagani, ushbu yo‘nalishdagi hujjatlar ijro etilmagani, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etishga yetarlicha e‘tibor qaratilmagani, bir so‘z bilan aytganda, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi eng “qoniqarsiz”, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchilarning huquqlari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan biror bir chora ko‘rilmagani aniqlandi hamda 3 nafar ichki nazorat tuzilmasi xodimiga nisbatan intizomiy (2 nafariga “Hayfsan” va 1 nafari bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi) jazo choralari ko‘rildi.

“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun kuchga kirguniga qadar unda belgilangan talablar va mexanizmlarning amaliyotda ishlashi bilan bog‘liq masalalarning bajarilishi 14 ta hududiy boshqarma hamda 34 ta tizim tashkilotlari va muassasalarida vazirning 2024-yil 19-iyuldagi 217-x-sonli buyrug‘i bilan tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan 22-iyul 2-avgust kunlari o‘rganilib, 50 dan ortiq tarkibiy bo‘linmalardagi topshiriqlarning ijrosiga mas‘ul 500 nafar ijrochilarga Qonun kuchga kirguniga qadar unda belgilangan talablar va mexanizmlarning amaliyotda ishlashi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha qonunchilik hujjatlariga asosan tushuntirish berildi, ularning ishlariga uslubiy jihatdan ko‘maklashildi hamda barcha xodimlar uchun Qonunning maqsadi, mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi va ommaviy axborot vositalari (rasmiy veb-sayt) orqali yoritildi.

Shuningdek, xodimlarning ish stolida eslatma sifatida foydalanishlari uchun manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar va bunday vaziyatlarda ko‘riladigan choralar bo‘yicha qo‘llanma ishlab chiqilib, 2024-yil 5-avgustda ularga yetkazildi.

### **III. Xavf-xatarlarni baholash.**

Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tizimining korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p duch keladigan vazifa va funksiyalari maxsus elektron platformaga (<https://e-anticor.uzadmin>) kiritib, aniqlandi va baholandi (82 ball bilan “yashil” hududdan o‘rin olgan) hamda 94 ta banddan iborat korrupsiyaviy xavf-xatarlar

xaritasi, 16 ta banddan iborat korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur, korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan 449 ta lavozimlar ro'yxati, korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri shakllantirildi va 2024-yil 20-iyunda 05-13-1676-sonli xat bilan ijroga qaratilib, 2024-yil 9-yanvarda yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yakuniy ma'lumot 05-13-152-sonli xat bilan Agentlikka ma'lumot yuborildi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi 78 ta past, 8 ta o'rta va 8 ta yuqori toifaga bo'lingan bo'lib, mazkur korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va oldini olish uchun maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid 90 ta normativ-huquqiy hujjatlarni 2024-yilda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishning tasdiqlangan ish rejasiga muvofiq 79 tasi bo'yicha korrupsiyaga qarshi ekspertiza o'tkazildi va to'ldirilgan cheklistlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga (2024-yil 29-maydagi 18-05-1408-sonli, 2024-yil 2-iyuldagi 05-18-1850-sonli, 2024-yil 8-avgustdagi 06-42-1867-sonli, 2024-yil 4-sentabrdagi 05-20-2897-son, 2024-yil 3-oktabrdagi 05-20-3556-son, 2024-yil 3-dekabrda 05-20-5009-sonli xatlar bilan) yuborildi.

Shuningdek, xavf-xatarlarni oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini yanada jonlantirish maqsadida soha faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali "inson omilini" qisqartirish bo'yicha yaratilgan barcha platformalar bugungi kunda ishchi holatda.

Xususan:

kitob.uz – kitobxonlarning ma'naviy boyligi, madaniyati va millat ko'zgusi bo'lib xizmat qilib kelayotgan o'zbek tilidagi elektron va audio kitoblarni o'qish imkonini yaratildi, natijada yoshlarni yangi talqinda kitob o'qishga qiziqtirish va ularning savodxonliklarini oshirish imkoniyati hamda elektron darsliklardan foydalanish imkoniyatini yaratildi;

emaktab.uz – o'quvchilarning o'zlashtirishini qayd qilish maqsadida "Kundalik" MCHJ tomonidan ishlab chiqilgan yagona raqamli ta'lim platformasini maktablarga joriy qilingan, natijada ota-onalar uchun joriy dars, fanlar bo'yicha bolaning sinfdagi reytingi, o'rtacha balli va hafta natijalari, ertangi kun uchun muhim ishlar, keyingi o'quv kuni uchun uy vazifalari soni haqidagi ma'lumotlarni olish va kuzatish imkoniyati yaratildi;

onlinedu.uz – AKT yordamida malaka oshirish o'quv kurslarini tashkil etish, bilim va ko'nikmalarini baholash, shuningdek, soha xodimlari o'rtasida raqobat muhitini yaratish, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasini zamon talablaridan kelib chiqib takomillashtirish, platformadan foydalanuvchilarni identifikatsiya qilish, foydalanuvchi ma'lumotlarining haqiqiyliги va xavfsizligini

ta'minlash va pedagog xodimlarning malakasini oshirish va sertifikatsiyalashdan iborat;

erp.maktab.uz - maktab faoliyatiga tegishli bo'lgan, o'quvchi va o'qituvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni raqamlashtirish orqali turli xildagi hisobot shakllari elektron olish imkoniyati mavjud. Natijada boshqa vazirlik idoralar bilan integratsiya qilish orqali ma'lumotlar olish vaqti iqtisod qilindi;

maktab.uz – o'quvchilarning masofadan ta'lim olish imkoniyati yaratildi. O'quvchilar har qanday joydan ta'lim olish, ta'limni uzluksiz davom etish imkoniyatiga ega bo'lishdi;

e-shahodatnoma.uz – bitiruvchilari uchun ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning dublikatini berish tizimini takomillashtirildi, bitiruvchilarning shahodatnomalarni (JSHSHIR)ga bog'lash orqali idoralararo elektron tizimlarga integratsiya qilish hamda o'quv yili yakunida maktab bitiruvchilariga elektron shahodatnoma berilishi to'liq ta'minlandi;

pedkadr.uzedu.uz – pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifasi (lavozim) berish bo'yicha hujjatlarni elektron ko'rinishida qabul jarayonlarini avtomatlashtirish hisobidan talabgorlarga qulayliklar yaratilgan. Natijada ta'lim xizmatlarini ko'rsatish jarayonida sarflanadigan materiallar va ish hajmi kamaytirilgan. Arizalarni masofadan topshirish imkoniyati yaratilgan;

test.uzedu.uz – axborot tizimi ishlab chiqilgunga qadar qog'oz ko'rinishida tashkil etilgan test sinovlarini onlayn ko'rinishga o'tkazishga erishildi;

manager.uzedu.uz – maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari uchun menejerlik kurslarini tashkil etish, kurs yakuni bo'yicha sertifikat shakllantirish imkoniyati yaratilgan;

davlat-xususiy sheriklik asosida bitim imzolashdagi korrupsion holatlarning oldini olish bo'yicha oilaviy shakldagi davlat-xususiy sheriklik bitimlarining imzolanish jarayonini elektron tarzda amalga oshirish joriy etildi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan subsidiyalardan maqsadsiz foydalanish holatlarini oldini olish maqsadida tarbiyalanuvchilarni hisobga olishning raqamli (Face ID) tizimi joriy etildi va bu tizimdagi axborotni Iqtisodiyot va moliya vazirligi axborot dasturiga integratsiya qilinishi ta'minlandi.

Buxoro, Farg'ona va Andijon viloyatlari maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalarining ichki nazorat tuzilmalari xodimlarining mas'uliyatsizligi oqibatida, korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p duch keladigan vazifa va funksiyalari Uslubiyot asosida aniqlanmagan, baholanmagan, korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur, korrupsiyaviy

xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati, korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri shakllantirilmagan.

#### **IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar.**

##### **Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish:**

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligida "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunni amalga oshirish bo'yicha 2024-yilda qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, Qonun va mazkur Qonunning ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-sonli qarori vazirning 2024-yil 7-iyundagi 183-sonli buyrug'i bilan ijroga qabul qilindi.

Mazkur buyruq bilan qonunchilik hujjatlaridagi topshiriqlarning ijrosiga mas'ul shaxslar belgilanib, uning amalga oshirilishi bo'yicha nazorat va hisobdorlikni tashkil etish uchun vazirlikning nazorat-rejasi tasdiqlandi va ijroga qaratildi hamda Qonun va qarorning matni tarkibiy va hududiy bo'linmalarga elektron shaklda yetkazilib, ulardagi normalarning mohiyati va ahamiyati barcha darajadagi xodimlarga tushuntirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

Shuningdek, 5-iyulda Qonunni amalga oshirish bo'yicha vazirlikning idoraviy dasturi tasdiqlanib, Qonun kuchga kirguniga qadar unda belgilangan talablar va mexanizmlarning amaliyotda ishlashi bilan bog'liq masalalar vazirning 19-iyuldagi 217-x-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan 22-iyul 3-avgust kunlari tizimdagi 14 ta hududiy boshqarma, 34 ta tashkilot va muassasalarda o'rganilib, 500 nafardan ortiq mas'ul ijrochi xodimlar uslubiy ta'minlandi.

Qonun kuchga kirguniga qadar unda belgilangan talablar va mexanizmlarning amaliyotda ishlashi bilan bog'liq masalalarni 4-20-noyabr kunlari takroran o'rganish va manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha seminarlar vazirning 28-oktabrdagi 349-sonli buyrug'iga asosan o'tkazilib, xodimlarga uslubiy tavsiyalar berildi.

Shu bilan birga, Qonun va ushbu Qonun davlat xaridlari sohasidagi munosabatlarga tatbiq etiladigan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, hududiy bo'linmalari hamda tizim tashkilotlari va muassasalarining shakllantirilgan ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborildi.

Vazirlik markaziy apparatining 206 nafar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tuman (shahar)lar bo'limlarining 10 065 nafar, tizim tashkilotlari va muassasalarining 391 nafar xodimlarining

manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilib, bilimlari test.adliya.uz saytida baholandi.

Tizimda faoliyat yuritayotgan 24 624 nafar maktab direktorlari va ularning o'rinbosarlari hamda 199 666 nafar pedagog xodimlar "Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish" mavzusida, shuningdek, oktabr oyida 1 605 nafar xodim Huquqni Muhofaza qilish akademiyasida "Manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda oldini olish" mavzusida masofaviy o'quv kursida o'qitildi va yana 41 384 nafar xodimni o'qitish bo'yicha tegishli ma'lumotlar Akademiyaga kiritildi.

Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning namunaviy shakli <https://www.uzedu.uz/uploads/downloads/WV0VXkkg3LTiREZSryMvBFB4i1Za aDXZ.pdf> Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtirildi.

Vazirlik tizimida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berishning elektron tizimi yo'lga qo'yilganligi o'rganilib, ro'yxati shakllantirildi va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon berilib, 17 mingta tashkilot binolariga plakat shaklidagi e'lon ham osildi.

Bundan tashqari, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholash va tartibga solish hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni (g'oliblarni) tanlash bo'yicha shakllantirilgan Xarid komissiyasi to'liq tarkibda ish faoliyatini olib bormoqda, Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat bo'limi va uning hududiy bo'linmalari mas'ul xodimlari davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va tashkilot bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etib kelmoqda.

Xodimlar tomonidan qonunchilikda belgilangan cheklovlarga rioya qilmaslik holatlari vazirlik tomonidan o'rganilib, yaqin qarindoshlar bevosita bo'ysunuvda faoliyat yuritib kelayotgan 20 ta hamda tadbirkorlik subyektida ta'sischi (rahbar) bo'lgan 145 ta manfaatlar to'qnashuvi holatlari bartaraf qilinib, 300 ta tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish holatlarini bartaraf etish bo'yicha ko'rsatma berildi va hozirda tegishli hujjatlar rasmiylashtirilmoqda.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi 13 ta tashkilotning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlaridagi egalik qilgan, shuningdek, ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a'zosi bo'lgan holatlarni aniqlash yuzasidan ham o'rganish o'tkazilib, tahlil qilindi va qonunchilikda belgilangan cheklovlarga rioya qilmaslik hamda manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmadi.

Vazirlikning idoraviy dasturida belgilangan tadbirlar bo'yicha ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Xususan, sohaga oid qonunchilik hujjatlari xatlovdan o'tkazilib, ularni Qonun hamda Qarorga muvofiqlashtirish, shuningdek, ulardan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda o'z kuchini yo'qotgan deb topiladigan hujjatlar to'g'risida ishlab chiqilgan takliflar Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Vazirining 28-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini takomillashtirish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar to'g'risida"gi 62-sonli buyrug'i bilan odob-axloq qoidalari, odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizom va 13 nafar komissiya tarkibi tasdiqlangan bo'lib, Odob axloq komissiyasi davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga rioya qilish masalalarini ko'rib chiqishi, xizmat tekshiruv o'tkazishi, axloq normalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarning oldini olishi, murojaatlarni ko'rib chiqishi, sha'n va qadr-qimmatni himoya qilishi, odob-axloq qoidalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishi kabi vazifalarni bajarib, ijtimoiy tarmoqlar hamda internet saytlarida xodimlar faoliyatidagi salbiy holatlar bo'yicha e'lon qilingan materiallarni muhokama qilib kelmoqda.

Bundan tashqari, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni yanada takomillashtirish va tizimli ishlarni yo'lga qo'yish maqsadida, vazirning 19-iyuldagi 71-sonli buyrug'i bilan 5 ta hududiy boshqarmalarda Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat sho'basini tashkil etildi.

Vazirlikning tegishli axborot tizimlari, platformalari va boshqa dasturiy ta'minotlari o'rganilib, xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiyalarni va xabarnomalarni yuborish imkoniyati rasmiy veb-saytning (<https://uzedu.uz/uz>) "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi"dagi "Xodimlar xatti-harakatiga oid korrupsiyani oldini olish bo'yicha murojaat bo'limi", shuningdek, mazkur saytning (<https://uzedu.uz/uz/static/request>) "Vazirga murojaat" hamda vazirlik serverlarida (<https://mail.uzedu.uz/webmail/login/#mail>) himoyalangan pochta tizimi mavjud bo'lib, bu yo'nalishdagi ishlar yanada jonlantirildi.

Shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlaydigan vazirlikning 8 ta tuzilmasi, xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat bo'limi, Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi, Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi, Davlat xaridlarini tashkil etish bo'limi, Moliya-iqtisod departamenti, Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Axborot kommunikatsiyalarni texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi hamda Ichki audit va moliyaviy nazoratni muvofiqlashtirish bo'limi, shuningdek, ularning hududiy hamda tizim tashkilotlar va muassasalardagi bo'linmalari mas'ul



xodimlari tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarni oshkor etmaslik va oshkor etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi haqida rasman ogohlantirilib, majburiyatnoma rasmiylashtirildi.

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi faoliyatiga oid 300 ga yaqin qonunchilik hujjatlari xatlovdan o'tkazilib, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha cheklovlar mavjud 10 ta qonunchilik hujjatlarining ro'yxati shakllantirildi.

Yaqin qarindoshlar bevosita bo'ysunuvda yoki nazorat yo'nalishidagi tashkilotlarda ishlayotganligini aniqlash maqsadida 2024-yillik deklaratsiyani vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tuman (shahar)lar bo'limlari, tizim tashkilotlari va muassasalarining 65 806 nafar (*vazirlik markaziy apparatida 291 nafar, Qoraqalpog'iston Respublikasida 25 090 nafar, Andijonda 1 122 nafar, Buxoroda 794 nafar, Jizzaxda 4 446 nafar, Qashqadaryoda 2 340 nafar, Navoiyda 13 750 nafar, Namanganda 1 219 nafar, Samarqandda 3 152 nafar, Sirdaryoda 2 254 nafar, Surxondaryoda 4 458 nafar, Toshkentda 2 353 nafar, Farg'onada 1 980 nafar, Xorazmda 1 266 nafar, Toshkentda 1 293 nafar*) xodimlari (mehnat ta'tili, bola parvarishi ta'tili, kasallik varaqasi va boshqa asoslar bundan mustasno) to'ldirdi.

Mazkur deklaratsiyalar bo'yicha dastlabki o'rganish, tahlil qilish va qayta ishlash amalga oshirildi. Shuningdek, deklaratsiya to'liq va to'g'ri to'ldirilganligi hamda unda aniq yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida ma'lumot bor yoki yo'qligi, ma'lumotlarga aniqlik kiritish ishlari bajarildi hamda ilgari taqdim etilgan ma'lumotlarga nisbatan o'zgarishlar tahlil qilinganida 61 nafar xodimda manfaatlar to'qnashuvi aniqlanib, bartaraf etildi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida hamda bo'ysunuvda bo'lgan tashkilotlarda xodimlar o'rindoshlik asosida ishlayotgan holatlar yuzasidan vazifalar ijrosi o'rganilib, tahlil qilindi va unga ko'ra 6 544 nafar xodimning ro'yxati shakllantirildi hamda umumlashtirilgan ma'lumot Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligiga yuborildi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidan ishdan bo'shagan xodimning ikki yil ichida o'z ish joyida bevosita nazoratida bo'lgan tashkilotlarga ishga kirish holatlari o'rganilib, tahlil qilindi va umumlashtirilgan ma'lumot 328 nafar xodimning ro'yxati bilan birga Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligiga yuborildi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida hamda bo'ysunuvda bo'lgan tashkilotlarda 2023 va 2024-yillarda jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha kelib tushgan murojaatlar tahlil qilindi va 62 135 ta murojaatda yaqin qarindoshlarning bitta davlat tashkilotida ulardan

birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishi va nazorati ostida faoliyat olib borishi yuzasidan 34 ta murojaat kelib tushganligi aniqlanib, manfaatlar to'qnashuvi bartaraf etildi.

2023-yil va 2024-yil davomida yaqin qarindoshi mansabdor shaxs sifatida ishlayotgan obyektни tekshirishda xodimlarning ishtirok etish hamda manfaatlar to'qnashuvi holatlari o'rganilib, tahlil qilindi. Unga ko'ra 6 560 ta o'tkazilgan tekshirishlarda manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmadi.

Mazkur "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun talablariga rioya etilishi holati to'g'risidagi Vazirlikning 2024-yilgi hisoboti rasmiy veb-saytga (<https://uzedu.uz/y3/page/some-page> havolasida) joylashtirilib, Agentlik 2024-yil 18-dekabrda 05-13-5451-sonli xat bilan xabardor qilindi.

Vazirlik tizimidagi 821 ta davlat buyurtmachilari tomonidan jami 52,7 mingta shartnomalar tuzilib, umumiy qiymati 4 324,5 mlrd so'mlik davlat xaridlari amalga oshirilgan.

Xususan, to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar asosida 3 590,6 mlrd so'mlik (83 foiz) 30,6 mingta, tender orqali 364,5 mlrd so'mlik (8,4 foiz) 112 ta, elektron do'kon orqali 197,3 mlrd so'mlik (4,6 foiz) 20,8 mingta, eng yaxshi takliflarni tanlash orqali 168,1 mlrd so'mlik (3,9 foiz) 707 ta va auksion orqali 4 mlrd so'mlik (0,1 foiz) 448 ta shartnomalar tuzilgan. Tuzilgan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalarning jami xaridlaridagi ulushi 83 foizni tashkil etgan.

"Ta'minot va logistika xizmati" DUK tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-57-son qaroriga asosan 2024-yil 19-yanvarda "Book Levin Group" MCHJ bilan "Qalamdon" (697,4 ming dona) xarid qilish bo'yicha 8,2 mlrd so'mlik shartnoma to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan.

Ma'lumot uchun, mazkur qarorga asosan tadbirkorlar bilan ular tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni yoki ko'rsatiladigan xizmatlarni xarid qilish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishga ruxsat berilgan.

O'rganishda, yetkazib beruvchi tomonidan qaror talablariga mos kelmagan holda ya'ni o'zi tomonidan ishlab chiqarilmagan tovarlar buyurtmachiga sotilganligi aniqlandi. Masalan, "Book Levin Group" MCHJ tomonidan "Xo'jaobod" MCHJdan 291,8 ming dona qalamdon 11,2 ming so'mdan xarid qilinib buyurtmachiga 11,8 ming so'mdan sotilgan.

Shu bilan birga, DUK tomonidan PQ-57-son qarorga asosan to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan 155,9 mlrd so'mlik 7 ta shartnoma bo'yicha avans mablag'lar (63,2 mlrd so'm) to'lab berilgan bo'lsada, 61,3 mlrd so'mlik tovarlar shartnomalarda

belgilangan muddatdan 30 kungacha kech yetkazib berilgan hamda 94,7 mlrd soʻmlik tovarlar esa yetkazib berilmaganligi aniqlandi.

Masalan, DUK bilan "Ezgulik-Porloq" MCHJ oʻrtasida 19.01.2024-yilda 30,9 mlrd soʻmlik shartnoma imzolangan boʻlib, 4,6 mlrd soʻmlik avans toʻlovi 23.02.2024-yilda toʻlab berilgan. Shartnomaga koʻra, mahsulot avans toʻlangan kundan 60 kalendar kun ichida toʻliq yetkazib berilishi lozim boʻlsada, 6,6 mlrd soʻmlik tovarlar yetkazib berilmagan.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tomonidan 3,5 mlrd soʻmlik 2 ta tanlov savdolari (337643 va 336083-son lotlar) qonunchilik talablariga zid ravishda ishtirokchilarning takliflarini baholash talablari buzilgan holda oʻtkazilgan.

Maʼlumot uchun, "Raqobat toʻgʻrisida"gi Qonunning 29-moddasi "savdolarni oʻtkazishning qonunchilikda belgilangan tartibini buzish va savdolarning bitta yoki bir nechta ishtirokchisiga savdolarida ishtirok etish uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratish" talablariga rioya qilinmagan.

Vazirlik tizimidagi 3 ta tashkilot (Respublika oʻgʻil bolalar oʻquv tarbiya muassasasi, Jomboy va Denov tumanlari maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimlari) tomonidan joriy yilning may oyida oʻtkazilgan 1,4 mlrd soʻmlik elektron tanlov savdolari affillanganlik mavjud holatda oʻtkazilgan boʻlib, shundan, 2 ta (1,1 mlrd soʻmlik) tanlov savdolari natijalari bekor qilinib, qonunbuzilish holati oldi olindi.

Vazirlik tizimidagi 262 ta tashkilotlarda, 87 ta byudjet buyurtmachilar tomonidan 288,9 mlrd soʻmlik 146 ta shartnomalar qonunchilik talablariga rioya etilmagan holda tender yoki tanlov oʻtkazmasdan toʻgʻridan-toʻgʻri tuzilganligi, 140 ta byudjet buyurtmachilarning 318 ta shartnomalari doirasida tovar va xizmatlari 22,1 mlrd soʻmga oʻrtacha bozor konyunkturasidan qimmat narxlarda tuzilganligi, 35 ta byudjet buyurtmachisining 68,3 mlrd soʻmlik 140 ta shartnomalari qonunchilikka rioya etilmagan holda manfaatlar toʻqnashuvi mavjud holatda tuzilganligi boʻyicha risklar aniqlanib, zarur chora-tadbirlar koʻrildi.

Jumladan, "xarid.uzex.uz" davlat xaridlari elektron tizimi orqali joriy yil may oyida Respublika oʻgʻil bolalar oʻquv tarbiya muassasasi tomonidan affillanganlik mavjud holatda oʻtkazilgan, shartnoma gʻaznachilik boʻlimida roʻyxatdan oʻtmagan va toʻlov amalga oshirilmagan tanlov savdosi natijasi bekor qilindi.

Aniqlangan risklarni oʻrganish natijasi boʻyicha qonunbuzilish holatlarini oldini olish va bartaraf etish ishlarini yakuniga yetkazish choralari koʻrilmoqda.

Manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisidagi deklaratsiyaning namunaviy shakli <https://www.uzedu.uz/uploads/downloads/WV0VXkkg3LTiREZSryMvBFB4i1Za aDXZ.pdf> Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtirildi.

### **Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot shartnomalariga kiritish:**

Vazirlik markaziy apparatida kontragentlar bilan tuzilgan 33 ta, hududiy boshqarmalardagi 1 584 ta va tizim tashkilotlaridagi 1032 ta shartnomalarga korrupsiyaga qarshi asosiy shartlar kiritildi.

Vazirlik tizimidagi 262 ta tashkilotlarda, 87 ta byudjet buyurtmachilar tomonidan 288,9 mlrd soʻmlik 146 ta shartnomalar qonunchilik talablariga rioya etilmagan holda tender yoki tanlov oʻtkazmasdan toʻgʻridan-toʻgʻri tuzilganligi, 140 ta byudjet buyurtmachilarning 318 ta shartnomalari doirasida tovar va xizmatlari 22,1 mlrd soʻmga oʻrtacha bozor konyunkturasidan qimmat narxlarda tuzilganligi, 35 ta byudjet buyurtmachisining 68,3 mlrd soʻmlik 140 ta shartnomalari qonunchilikka rioya etilmagan holda manfaatlar toʻqnashuvi mavjud holatda tuzilganligi boʻyicha zarur chora-tadbirlar koʻrildi.

### **Kontragentlarni tekshirish:**

Hisobot davrida vazirlik markaziy apparatida 33 ta, hududiy boshqarmalarda 1 584 ta va tizim tashkilotlarida 1032 ta kontragentlar tekshirilib, 2 384 ta ijobiy va 265 ta salbiy xulosa berildi, bu koʻrsatkich 11 foizni tashkil etgan.

### **Ishga nomzodlarni tekshirish:**

Vazirlik markaziy apparatida 1 652 nafar, hududiy boshqarmalarda 1 788 nafar va tizim tashkilotlarida 401 nafar ishga qabul qilinadigan nomzodlar tekshirilib, vazirlikda 1 475 ta, hududlarda 1 602 ta va tizim tashkilotlarida 259 ta ijobiy, vazirlikda 177 ta, hududlarda 186 ta va tizim tashkilotlarida 142 ta salbiy xulosa berilgan.

### **V. Taʼlim va kommunikatsiya.**

Vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmalari, tuman (shahar)lar boʻlimlari, tizim tashkilotlari va muassasalari xodimlarining manfaatlar toʻqnashuvi boʻyicha bilim va koʻnikmalarini yanada oshirish va baholash maqsadida test.adliya.uz sayti orqali testda ishtiroki taʼminlandi.

Jumladan, vazirlik markaziy apparatidan 206 nafar, tizim tashkilotlaridan 391 nafar, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmalari, tuman (shahar)lar boʻlimlaridan 10 065 nafar xodimlarning test natijalari 2024-yil 15-iyulda 05-13-2039-sonli xati bilan Adliya vazirligiga yuborildi.

Tizimda faoliyat yuritayotgan 24 624 nafar maktab direktorlari va ularning oʻrinbosarlari hamda 199 666 nafar pedagog xodimlar “Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish” mavzusida 2 soatlik malaka oshirish doirasida oʻqitildi.

Shuningdek, “2024-yilda davlat budjeti mablag‘larini maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan ta’sirchan nazorat va monitoring tizimini tashkil etish” mavzusi bo‘yicha xodimlarning mustaqil o‘qib o‘rganilishini tashkil etish uchun 4 ta taqdimot va 6 ta videoroliklar 2024-yil 19-fevralda 03-01/5-764-sonli xat bilan joylarga yuborildi.

Bundan tashqari, 1 605 nafar xodim Huquqni Muhofaza qilish akademiyasida "Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda oldini olish" mavzusida masofaviy o‘quv kursida o‘qitildi va yana 41 384 nafar xodimni o‘qitish bo‘yicha tegishli ma’lumotlar Akademiyaga kiritildi.

Vazirlik, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari hamda tizim tashkilotlari xodimlari uchun korrupsiyaviy xatti-harakatlarda qatnashmaslik, korrupsiya va uning oqibatlari, bu kabi jinoyatlarni oldini olish bo‘yicha 19 ta banddan iborat targ‘ibot va profilaktika tadbirlari rejasi tasdiqlanib, 709 ta targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi.

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning 31-moddasiga va “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining 19, 26-27-moddalariga hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 16-oktabrdagi 334-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi to‘g‘risida”gi nizomning 11-bandiga muvofiq jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga qat’iy rioya qilishi, har turli aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sodir etmasligi, xususan, korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarliklarga hamda korrupsiyaga oid jinoyatlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi to‘g‘risida 900 ming nafar xodimga yakka tartibda profilaktika tadbiri o‘tkazilib, bu norma va qoidalarga rioya qilmaslik tegishliligi bo‘yicha axloqiy ta’sir choralari, intizomiy javobgarlik va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks moddalarida, xususan, korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar, ya’ni 61<sup>1</sup>, 193<sup>1</sup> va 193<sup>2</sup>-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar hamda Jinoyat kodeksi moddalarida, xususan, korrupsiyaga oid jinoyatlar, ya’ni 167-moddaning ikkinchi qismi “g” bandi, 168-moddaning uchinchi qismi “v” bandi, 192<sup>9</sup> va 192<sup>10</sup>, 205, 209 — 214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlar bo‘yicha javobgarlik haqida ular rasman ogohlantirildi.

Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim, malaka ko‘nikmalarini mustaqil oshirish, o‘qib o‘rganishni tashkil etish uchun joriy yilning 19-fevral kuni 03-01/5-764-sonli xat bilan 4 ta taqdimot materiallari hamda 6 ta videorolik joylarga yetkazildi.

“O‘zbekiston-24” radiokanalida intervyu berilib, “Ma’rifat” gazetasi 9-sonida “Aksilkorrupsiyaviy islohotlar amalda” hamda “Boshlang‘ich ta’lim” jurnalining 3-sonida “Ta’lim va korrupsiyaga qarshi kurash” nomli maqolalar e’lon qilindi.

Rasmiy veb saytda Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri Hilola Umarovanning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha murojaati 2024-yil 3-iyulda e’lon (<https://uzedu.uz/y3/lists/12/253>) qilinib, tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha darajadagi xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan fikr-mulohazalarini o‘rganish maqsadida anonim so‘rov o‘tkazildi va 41 624 nafar fuqarodan 10 919 nafari (respondent) so‘rovnomani to‘ldirdi.

So‘rov natijalarida olingan ma’lumotlar faoliyatning barcha sohalarida korrupsiyaning turli ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish, xodimlarda huquqiy ong va madaniyatni yanada oshirish bo‘yicha faol ish olib borishni ko‘rsatib, joylarga ko‘rsatma berildi.

## **VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar.**

Korrupsiya holatlari haqida xabar berish uchun barcha turdagi aloqa kanallarining (“Ishonch telefoni”, elektron pochta manzillari, rasmiy veb-sayt, telegram bot va ijtimoiy tarmoqlardagi boshqa sahifalar) uzluksiz faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, nazoratga olingan.

Xususan, korrupsiyaga oid 848 ta murojaat kelib tushgan shundan, 14 ta aloqa kanali, 26 tasi “Ishonch telefoni”, 276 tasi pochta, 262 tasi vazirlikning elektron pochta, 258 tasi Prezident virtual qabulxonasi, 12 tasi vazirga murojaat portali orqali kelib tushgan.

Mazkur murojaatlarning 407 tasi qanoatlantirildi, 412 tasiga huquqiy tushuntirish berilgan, 16 tasi anonim deb topilgan va 13 tasi ko‘rmasdan qoldirilgan.

Milliy do‘konga joylashtirilgan lotlar orqali “Varq dream style” va “IBROXIM DREAM TECH” MCHJlari tomonidan elektron davlat xaridlari axborot portalida shartnomalar imzolangan. Ushbu shartnomalarga asosan Navoiy viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasiga 1 mlrd.105 mln. so‘mlik sport tovarlari yetkazib berish nazarda tutilgan bo‘lib, mazkur xarid bo‘yicha boshqarma bosh hisobchisi vazifasini bajarib kelgan A.Yerejepov (boshqarma boshlig‘ining 2024-yil 5-martdagi 142-KB-sonli buyrug‘i bilan egallab turgan lavozimida ozod etilgan) lot raqamlarini berish orqali tadbirkor bilan kelishgan, bu masalada boshqarma boshlig‘ining moliyaviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Bozorov (vazirning 879-k-sonli buyrug‘i bilan egallab turgan lavozimida ozod etilgan) ko‘rsatma bergan.

Mazkur xarid bo'yicha mahsulot bozor narxidan taxminan 340 mln so'm atrofida qimmat hisoblangan. Ushbu davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganligi holati bo'yicha ushbu shartnomalar 2024-yil 25-yanvar kuni bekor qilinib, manfaatlar to'qnashuvi bartaraf etildi.

Hududlardagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari tomonidan jami 511 ta murojaat kelib tushgan. Ushbu murojaatlarning 315 tasi [edo.ijro.uz](http://edo.ijro.uz), 44 tasi maxsus aloqa kanallari, 68 tasi ijtimoiy tarmoqlar va 84 tasi davlat organlari va tashkilotlari orqali kelib tushgan.

Jismoniy va yuridik shaxslar o'z murojaatida eng ko'p rahbar xodimlar faoliyatidan norozilik (318 ta), moddiy yordam va ustamalar (65 ta), ishdan bo'shatish (60 ta), huquqbuzarliklarning oldini olish (68 ta) bilan bog'liq yana boshqa masalalarni ko'tarishgan.

Jismoniy va yuridik shaxslarni murojaat qilishga majbur etayotgan muammolarni o'z vaqtida bartaraf qilish hamda to'g'ridan-to'g'ri tunu kun murojaat qilishi uchun "Vazirga murojaat" portali tashkil etildi (1172 ta murojaat kelib tushgan).

Murojaatlarda ko'tarilayotgan masalalarni hal etish bo'yicha barcha darajadagi rahbarlarning hisobotini har oyda eshitib borish amaliyoti yo'lga qo'yilib, tashkilot rahbarlariga aniq topshiriq va ko'rsatmalar berildi, "Yo'l xarita" va chora-tadbirlar dasturi ijroga qaratilib, murojaatlarni o'z vaqtida hal etish, ularni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'ymaslik hamda buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralari ko'rish fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlari sifatida qaralishi haqida barcha darajadagi rahbarlar bilan kafolat xatlari (majburiyatnoma) rasmiylashtirildi.

## **VII. Monitoring va nazorat.**

Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunlar hamda faoliyatni tartibga soluvchi boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek, ko'rsatma va topshiriqlarning ijrosi qanday bajarilayotganligi rejali asosda vazirlik ishchi guruhi tomonidan 49 ta tizim tashkilotlarida, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Sirdaryo, Namangan, Farg'ona, Andijon va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, hududiy bo'linmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlari va muassasalari, shuningdek, A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutida o'rganilib, amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birga, qator qonun buzilishi, xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi.

Xususan, boshqarmalardagi tarkibiy bo'linmalarning nizomlari mavjud emas, vazifalar taqsimoti yuklatilgan vazifa va funksiyalarni to'liq qamrab olmagan,

lavozim yo'riqnomalari ma'muriy islohotlar natijasida funksional majburiyatlarning qayta taqsimlanishini hisobga olgan holda ishlab chiqilmagan.

Jamoa shartnomasi va ichki tartib qoidalari amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirilmagan. Doimiy faoliyat yurituvchi komissiyalar va umumta'lim muassasalaridagi ishchi guruhlar lozim darajada ishlamagan.

Ayrim xodimlarning mutaxassisligi malaka talablariga muvofiq emas. Xodimlar ochiq tanlov o'tkazilmasdan ishga qabul qilingan. Ayrim xodimlar bilan mehnat shartnomasi tuzilmagan, "hrm.argos.uz" elektron platformasiga kiritilgan buyruqlar imzolanmagan, buyruqlar ro'yxatga olinmagan, bir xil sana va bir xil raqamdagi buyruq bilan bir necha shaxs lavozimga tayinlangan, ayrim xodimlar 1 yil ishga kelmagan bo'lsada, munosabat bildirilmagan. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va umumta'lim muassasasi direktori lavozimlariga nomzodlarni noqonuniy tayinlash holatlari mavjud.

Umumta'lim muassasalarining kadrlar bo'yicha menejerlari yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirmagan, mehnat va ijro intizomi nazorat qilinmagan, mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlar "my.mehnat.uz" Yagona milliy mehnat tizimidan chiqarilmagan, mehnat qonunchiligi talablariga rioya qilinmagan, erp.maktab.uz platformasida o'quvchilar to'liq qayd etilmagan, emaktab.uz platformasida dars mavzulari to'liq kiritilmagan, bajarilmagan ishlar "bajarildi" qilib ko'rsatilgan, arxiv ishlari ham lozim darajada bajarilmagan.

Ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha ichki lokal hujjatlar mavjud emas, edo.ijro.uz hamda exat.uz tizimi faoliyatga to'liq tatbiq etilmagan. Tarkibiy bo'linmalardagi aksariyat hujjatlarning ijrosi nazoratga olinmagan, muddati buzib bajarilgan, ayrim murojaatlarning ijrosi ta'minlanmagan. Sayyor qabullar o'tkazilmagan. Tarkibiy bo'linmalarning har chorakda amalga oshirgan ishlarining hisoboti shakllantirilmagan. Ish rejalarda belgilangan tadbirlarning ijrosi ta'minlanmagan.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasi ham nazoratga olinmagan, arizalar muddati buzib ko'rib chiqilgan. Maktabgacha ta'lim qamrovi va sifatini oshirish masalalari ham o'z holiga tashlab qo'yilgan, takliflar ishlab chiqilmagan. Bog'chalarda yo'llanmasiz tarbiyalanuvchilar mavjud, axborot tizimiga noto'g'ri ma'lumot kiritilgan, taomnoma tuzilmagan, tarbiyalanuvchilarga ovqat to'liq berilmagan, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari xodimlar tomonidan olib ketilgan, byudjet hisobidan bepul yetkazib berilgan o'quv-metodik vositalar, qo'llanmalar, ko'rgazmali materiallar, didaktik o'yin va o'yinchoqlar mas'ul xodim tomonidan sotilgan.

Xodimlarning malaka oshirishi reja asosida to'liq ta'minlanmagan. Ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablar bilan, shuningdek, huquqbuzarlikka moyil



o'quvchilar bilan individual ishlash tizimli tashkil etilmagan. Axborot xavfsizligi siyosati va talablariga amal qilinishi nazorat qilinmagan.

Ayrim xodimlarga Mehnat kodeksi, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi va "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunlar hamda Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-martdagi 103-sonli qarorida belgilangan cheklovlarga rioya etmaganlik uchun chora ko'rilmagan.

Yuridik xizmat ko'rsatish sho'basini xodimlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to'g'risida"gi nizomda, Matbuot kotibi esa Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmati to'g'risida"gi namunaviy nizomda belgilangan asosiy vazifa va funksiyalarini to'liq amalga oshirmagan.

Yuridik xizmat ko'rsatish sho'basini xodimlarining mehnatiga haq to'lash bo'yicha lavozim razryadlari Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1-maydagi 250-sonli qarori talablari asosida belgilanmagan.

Rasmiy veb-saytlar Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat organlari, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytiga qo'yiladigan asosiy talablar" asosida yuritilmagan va ochiq ma'lumotlar portaliga ham tegishli ma'lumot va axborotlar joylashtirilmagan, joylashtirilgan axborotlar ham faoliyatni to'liq va xolisona yoritilishini ta'minlamagan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilmagan, jumladan, faoliyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlar aniqlanmagan, ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash va xaridlar jarayonida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va aniqlash bilan bog'liq choralar ko'rilmagan, korrupsiya haqida xabar berish bo'yicha aloqa kanallari yo'lga qo'yilmagan, ushbu yo'nalishdagi hujjatlar ijro etilmagan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan, bir so'z bilan aytganda, Buxoro, Farg'ona va Andijon viloyatlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligi eng "qoniqarsiz". Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchilarning huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan biror bir chora ko'rilmagan.

Yuqorida qayd etilganlarga asosan tekshiruvlar natijalarini tanqidiy muhokama qilish, aniqlangan qonun buzilishi, xato va kamchiliklarni, ularning kelib chiqish sabablarini hamda bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni zudlik bilan bartaraf etishga qaratilgan aniq choralar ko'rish va o'z faoliyatida sustkashlikka yo'l qo'ygan aybdor xodimlarning javobgarlik masalasini hal etish,

shuningdek, faoliyatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqish va har chorakda ijrosini ta'minlash yuzasidan tegishli rahbarlarning hisobotlarini eshitib borishni tashkil etish bo'yicha joylarga ko'rsatma berildi.

Bundan tashqari, Samarqand va Namangan viloyatlarida pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishdagi noqonuniy xatti-harakatlari uchun 30 nafar xodimga intizomiy jazo chorasi ko'rib, 17 nafar xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilindi.

Hududlardagi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari tomonidan yuqoridagi kabi o'rganishlar o'tkazilmagan.

### **VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari.**

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarida byudjet mablag'larini talon-toroj qilishning oldini olish, isitish tizimlarini DXSH asosida modernizatsiya qilish ishlarining ahvoli Qoraqalpog'iston Respublikasi (Amudaryo va Beruniy tumanlari), Navoiy viloyati (G'ozg'on shahar, Navbahor, Konimex, Tomdi, Uchquduq tumanlari), Jizzax viloyati (Arnasoy, Do'stlik, Zafarobod, G'allaorol tumanlari), Samarqand viloyati (Narpay, Ishtixon va Samarqand tumanlarida) Qashqadaryo viloyatlarida (Qarshi, Kosonsoy, Muborak, Chiroqchi, Ko'kdala, Yakkabog' tumanlari) o'rganilib, qator qonunbuzilishlarga yo'l qo'yilganligi, xususan, 59 mlrd 043 mln so'm mablag' hujjatsiz tadbirkorga ko'chirib berilganligi, 5 mlrd 707 mln so'm bajarilmagan ishlar hisobotga qo'shib yozilganligi aniqlandi va hujjatlar qonuniy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborildi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirish, sanitariya qoidalari, gigiyena normalariga rioya qilish bo'yicha Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanidagi 11 ta (10, 13, 14, 17, 19, 23, 24, 30, 31, 39, 46-son) maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rganilib, 160 mln so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari hisobotga qo'shib yozilganligi aniqlanib, hujjatlar huquqiy baho berish uchun Bosh prokuraturaga yuborildi.

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mansabdor shaxslari tomonidan tarbiyalanuvchilarga ajratilgan 750 mln so'mlik oziq-ovqat mahsulotlarini talon toroj qilganligi aniqlanib, hujjatlar tuman prokuraturasiga yuborilib, Jinoyat kodeksining 167-moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Qashqadaryo viloyati Nishon tumanidagi 3 ta (5, 8, 21-son) davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'rganish o'tkazilib, tarbiyalanuvchilarga birinchi kategoriyali mol go'shti berish belgilangan bo'lsada, ruxsat etilmagan kalla-poycha (buyrak, yurak, o'pka, yelin, go'shtning bezli qismlari, diafragma)

berilganligi aniqlandi va 3 nafar direktor (X.Yakubova, G.Sulliyeva va G.Eshkulova)lar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilindi.

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi 91-sonli maktab direktori Y.Sattarov maktab balansidagi 8 turdagi qiymati 16 mln soʻmlik tovar-moddiy boyliklarni (kompyuter jamlanmasi, konditsioner, televizor va musiqa asboblarni) “OLX” ijtimoiy tarmogʻi orqali sotganligi aniqlanib, hujjatlar tuman prokuraturasiga taqdim etildi.

Shuningdek, Yashnobod tumanidagi 156-sonli umumtaʼlim maktabi direktori M.Xamdamova maktabda tashkil etilgan pullik taʼlim xizmatlari koʻrsatish uchun shartnoma tuzmasdan 2023-yil sentabrdan 2024-yil yanvar oyiga qadar oʻquvchilarning ota-onalari tomonidan toʻlangan 144 mln. soʻm pulni maktabning shaxsiy gʻaznachilik hisobvaragʻiga kirim qilmasdan oʻzlashtirganligi, 2023-2024 oʻquv yili davomida dars jarayonlariga qatnashmagan 9 nafar oʻquvchiga “kundalik.com” va “e-maktab” platformasiga oʻqituvchilar tomonidan soxta maʼlumotlar kiritib kelinganligi aniqlanib, toʻplangan materiallar prokuratura idoralariga yuborildi.

2023-2024 oʻquv yili davomida sinfdan-sinfga (10-sinfdan 11-sinfga) noqonuniy oʻtkazilgan (“sakratilgan”) oʻquvchilar boʻyicha ham oʻrganish oʻtkazilib, jami 28 nafar, shundan, Samarqandda 12 nafar) Andijonda 7 nafar, Sirdaryoda 1 nafar, Qashqadaryoda 3 nafar, Xorazmda 2 nafar va Surxondaryoda 1 nafar hamda Toshkent shahrida 2 nafar umumiy oʻrta taʼlim oʻquvchilari 10 sinfdan 11-sinfga noqonuniy oʻtkazilgan. Hujjatlar huquqiy baho berish uchun prokuratura idoralariga yuborildi.

Tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlar tomonidan korrupsiya bilan bogʻliq qator jinoyatlar ham sodir etilgan. Jumladan, 2024-yilda 479 ta jinoyat ishi koʻrilib, 726 nafar xodim jinoiy javobgarlikka tortilgan boʻlsa, jinoyatlar soni 2023-yilga (404 ta) nisbatan 2024-yilda 16 foizga, jinoyat sodir etgan shaxslar soni esa 191 nafarga yoki 26 foizga koʻpaygan.

Ushbu jinoyatlarning 38 tasi Qoraqalpogʻiston Respublikasi, 16 tasi Xorazm, 24 tasi Buxoro, 19 tasi Navoiy, 43 tasi Samarqand, 45 tasi Qashqadaryo, 52 tasi Surxondaryo, 25 tasi Jizzax, 16 tasi Sirdaryo, 49 tasi Fargʻona, 73 tasi Andijon, 42 tasi Namangan, 27 tasi Toshkent viloyatlari va 10 tasi Toshkent shahar hissasiga toʻgʻri keladi.

Jinoyat sodir etgan xodimlarning 106 nafari ularga ishonib topshirilgan mulk oʻzlashtirish yoki rastrata qilish yoʻli bilan talon-toroj qilgani, 20 nafari firibgarlik, 52 nafari mansab soxtakorligi, 11 nafari pora olgani, 13 nafari pora bergani, 3 nafari pora olish-berishda vositachilik qilgani, 13 nafari qasddan badanga yengil shikast

yetkazgani, 29 nafari hujjatlarni qalbakilashtirgani uchun va qolgan 89 nafar xodim jinoyat kodeksining boshqa moddalari bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Ushbu jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar, vazirlikning va hududiy boshqarmalarning hay'at yig'ilishlarida muhokama qilinib, tegishli chora-tadbirlar belgilandi.

### **IX. Xulosalar.**

Vazirlik tizimida korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa huquqbuzarliklarning oldi olish, faoliyatning ochiqligiga erishish va zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalar ijrosiga nisbatan xodimlar mas'uliyatini yanada oshirish, mansabdor shaxslar va boshqa xodimlar faoliyati samaradorligini yangi mezonlar asosida baholash, xodimlarning kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odoq-axloqining yuksalib borishi, faoliyatda korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan natijalarga erishiladi.

O'tgan 2023-yilda vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalari 82 ball bilan baholanib, "yashil" hududdan o'rin oldi, 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 52 ball "qizil" hududda bo'lgan.

Xulosa qilsak yuqorida vazirlik va tarkibiy bo'linmalar kesimida korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalari ko'rsatildi, avvalgi davrlardagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslama qiladigan bo'lsak o'sish bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

### **X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi.**

Maktabgacha va maktab ta'limi sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish, korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash, sohada ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan "Korrupsiyasiz soha" loyihasi to'liq amalga oshiriladi.

Xodimlarni eng avvalo, korrupsiyaga nisbatan huquqiy savodxonligini oshirish yo'li bilan bu illatga nisbatan murosasiz munosabat ruhi shakllantiriladi. Shu bois, targ'ibot va o'quv seminar tadbirlari doimiy ravishda tashkil etiladi. Xodimlarni korrupsiya holati va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi yuzasidan doimiy nazorat amalga oshiriladi. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat faoliyati uchun mas'ul xodimlarning asosiy maqsadi korrupsion holatlarni oldindan aniqlab uni oldini olish va korrupsiyaviy xavf-xatarlardan holi qilish va "Korrupsiyasiz soha" maqomini olishdan iborat.

Soha xodimlari hamda umumta'lim muassasalari pedagoglari o'rtasida "Umumta'lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish" mavzusidagi targ'ibot va profilaktika tadbirlarini o'tkaziladi va ular o'qitiladi.

Maktabgacha va maktab ta'limi muassasalari faoliyatiga asossiz aralashish, pedagog kadrlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, ularning mehnatga majburlanishiga, ta'lim-tarbiya jarayoniga to'sqinlik qilishning har qanday shakllariga, o'qituvchi va o'quvchilarning huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralar ko'riladi.

Shuningdek, amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda sohadagi muammolar, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ko'plab vazifalar, xususan, davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya qilish, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni ko'rmaganlik uchun mas'ul mansabdor shaxslarning javobgarlik masalasi ko'rib chiqiladi, shuningdek, barcha darajadagi xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlaridagi mas'uliyati kuchaytiriladi.

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan quyidagi aniq takliflar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini joriy etish bo'yicha 2024-2025-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"ning 29-bandi va Agentlikning 2024-yil 25-dekabrda 01-06/7097-sonli xatiga asosan kiritilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-sonli qarori 3-bandiga asosan 2021-yil 1-oktabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlarida mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini yo'lga qo'yish belgilanib, Vazirlik markaziy apparatida 7 ta shtat birligidan iborat boshqarma, hududiy bo'linmalarda 2 tadan shtat birligida sho'ba, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida 3 ta va A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutida 2 ta shtat birligidan iborat bo'lim faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2024-yilning 10-noyabridan vazirlik markaziy apparatidagi boshqarma bo'limga (3 ta shtat birligi qisqartirildi) aylantirildi, 9 ta hududiy boshqarmadagi sho'ba tugatilib (5 tasida qoldi), 9 ta shtat birligi qisqartirildi.

Vazirlik tasarrufidagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi hamda tuman (shahar)lar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, shu jumladan, qolgan 36 ta tashkilot va muassasalarda ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilmagan.

Biroq, ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilgan va shtat birliklari mavjud bo'lmagan tashkilotlarda vazifalar boshqa tarkibiy bo'linmalar xodimlari zimmasiga qo'shimcha vazifa sifatida yuklatilgan bo'lsa-da, ichki nazorat

tuzilmalarini mavjud shtat birliklari doirasida tashkil etilganligi kabi bir qator omillar korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralari ko'rish kabi funksional vazifalarini to'liq bajarishiga to'sqinlik qilmoqda, natijadorlik ko'rsatkichlariga esa salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Eng asosiysi, Ichki nazorat tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-sonli qaroriga asosan 2 ta asosiy vazifani, birinchisi – maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarida ichki nazoratni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va boshqa qonunga xilof harakatlar sodir etilishining, shuningdek, Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan kasbga oid odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish va profilaktika qilish, ikkinchisi – davlat organlari va boshqa tashkilotlarning maktabgacha va maktab ta'limi muassasalari faoliyatiga asossiz aralashuviga, pedagog kadrlarning sha'ni va qadr-qimmati kamsitilishiga, ularning mehnatga majburlanishiga, ta'lim-tarbiya jarayoniga to'sqinlik qilishning har qanday shakllariga, o'qituvchi va o'quvchilarning huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko'rish vazifa va funksiyalarini amalga oshiradi.

Shunga ko'ra, tizimda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarini shakllantirish va lavozimlarni joriy etishni quyidagicha taklif etamiz. Jumladan:

Vazirlik markaziy apparatida boshqarma – 7 ta;

alohida maqomga ega mustaqil respublika ijro etuvchi hokimiyat organi sifatida Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligida – 2 ta;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalarida – 3 tadan;

tuman (shahar)lar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarida – 1 tadan.

Ma'lumot uchun, tizimdagi 17 585 ta tashkilot va muassasalarda jami 972 592 nafar xodim ishlaydi. Oxirgi 2 yilda tanlov va tender asosida amalga oshirilgan xaridlarning o'rtacha soni 7 060 tani, korrupsiya bilan bog'liq murojaatlar soni esa 1 884 tani tashkil etdi. 2022-yilda 597 nafar xodim korrupsiyaga oid jinoyat sodir etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 535 nafarni, 2024-yilda esa 726 nafarni tashkil etdi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va boshqa qonunga xilof harakatlar sodir etilishining, shuningdek, Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan kasbga oid odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish va profilaktika qilish vazifalaridan tashqari, 17 017 ta maktabgacha va maktab ta'limi muassasalari faoliyatiga asossiz aralashuviga, 957 786 nafar pedagog kadrlarning sha'ni va qadr-qimmati kamsitilishiga, ularning mehnatga

majburlanishiga, ta'lim-tarbiya jarayoniga to'sqinlik qilishning har qanday shakllariga, o'qituvchi va 6,5 mln o'quvchilarning huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko'rib kelmoqda.

Bu esa korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi xodimlari shtat birligiga nisbatan ish hajmi ko'pligini, faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda shtat birliklari sonini ko'proq belgilash maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda.

Xorijiy tajribada esa korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha profilaktika funksiyasini davlat organlari va tashkilotlari bajaradi (Gruziya, Ozarbayjon, Rossiya, Sloveniya, Chernogoriya, Serbiya, Fransiya, Niderlandiya, Italiya, Litva, Turkiya, Estoniya va Avstriya va boshqalar) va bu eng keng tarqalgan model hisoblanadi hamda vazirliklar va davlat idoralaridagi odob-axloq komissiyalari ushbu organ ichidagi korrupsiyaga qarshi va axloqiy qoidalarni targ'ib qiladi.

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi**  
**Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy**  
**nazorat bo'limi**